

Loyiha menejmenti – zamonaviy boshqaruvning dolzarb yo'nalishi sifatida (ta'lim sohasi misolida)

Valiyeva Feruza Abduhalimovna

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Citation: Valieva, F. Project management as a current trend in modern management (on the example of the education sector). Acta Education, (2024) 1(1), 15–18. <https://doi.org/10.61587/3030-3141-2024-1-1-26-30>

Corresponding authors:
Valiyeva F.A. s131@tiue.uz

Annotatsiya. Mazkur maqola zamonaviy menejment fanining alohida tarmog'i bo'lgan loyiha menejmentining dolzarbligini ochib berishga qaratilgan. Bugungi kunda turli sohalarda tez-tez turli o'zgarishlar ro'y bermoqda va bunday sharoitda loyihaviy boshqaruvga bo'lgan ehtiyoj yanada oshib boradi. Maqolada ta'lim sohasida loyiha menejmentining ahamiyatining tahlili asosida muallif turli usul va yondashuvlarni ko'rib chiqqan. Buning asosida loyiha menejmentining ta'lim sohasidagi bo'lgan ahamiyati va umuman dolzarbligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: loyiha, boshqaruv, menejment, loyiha menejmenti, tashkilot, ta'lim.

Project management as a current trend in modern management (on the example of the education sector)

Valieva Feruza Abdukhaliimovna

Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article discusses the significance of project management as a distinct field of management science. With rapid changes occurring in various sectors, project management has become increasingly important. Using the example of analyzing the significance of project management in education, the article examines various methods and techniques. Based on this analysis, the importance and significance of project management in education is justified.

Keywords: project, administration, management, project management, organization, education.

Kirish

Zamonaviy davrda jahon miqyosida turli texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar tezlik bilan ro'y bermoqda. Global va lokal miqyosdagi kompaniyalar ushbu o'zgarishlarga moslashish uchun yangicha mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqib, joriy qilishmoqda. Shu bilan birga mazkur o'zgarishlar tufayli nafaqat katta kompaniya, balki mahalliy tashkilotlarning tashkiliy tuzilmasida ham o'zgarishlar bo'lishi lozim, chunki bu raqobatchilarga yetarli darajada bardosh bo'lish uchun muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, global bozor miqyosida ishtirokchilar turli mamlakat va madaniyatlar vakilidir va bu ular o'rtasida optimal hamkorlikni o'rnatish uchun yangicha

usul va yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Aynan shunlarning munosabati bilan zamonaviy boshqaruv jarayonlarida aytib o'tilgan o'zgarishlarni tizimlashtirish, ularni samarali boshqarish, xavf-xatarlarni minimallashtirish, resurlarni optimizatsiyalash hamda maqsadlarga erishish uchun loyiha menejmenti bugungi menejmentning dolzarb yo'nalishiga aylanmoqda. Qayd etilganlardan tashqari, loyiha menejmenti yangi texnologiyalarni joriy qilish, muddat, byudjet va sifatni nazorat qilish uchun yetarli darajadagi metodologiya va vositalarga ega. Loyiha menejmentining zamonaviy metodologiyalari egiluvchan va moslashuvchandir, ular talab va shart-sharoitlarga tezlik bilan javob

Funding source for publication: Tashkent International University of Education.

Publisher's Note: Acta Education stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.



Copyright: © 2023 by the authors. Licensee Acta Education, Tashkent, Uzbekistan. This article is an open access article distributed under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY-NC-ND) license (<https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/>).

bera oladi, noaniq vaziyatlarda xatarlarni tizimli ravishda identifikatsiyalash, baho berish va ularni boshqarishga hamda loyihani muvaffaqiyatli yakunlashga imkon beradi. Bu esa nafaqat iqtisodiyot uchun muhim, balki ta'lim sohasi uchun ham ahamiyatli, chunki aynan ta'lim har qanday mamlakat taraqqiyotining fundamenti hisoblanadi. Mazkur maqolada biz aynan ta'lim sohasi misolida loyiha menejmentining dolzarbligini tahlil qilamiz.

Adabiyotlar sharhi

Loyihalar menejmenti sohasida E.Stenli, D.Rasel, M.Nyuell, K.Larson, R.Byurke, K.Xeldman, R.Nyuton, E.Andersen, Yu.Lapigin, A.Minkevich, S.Dertsap kabi xorijiy olimlar shug'ullanib kelmoqda. Mamlakatimizda O.Mamanazarov, A.Nazirov, D.Inoyatova, A.Hasan, D.Suyunov, B.Xolbayev va boshqalar loyiha boshqaruvining ilmiy-nazariy asoslari bilan shug'ullanishmoqda. Xususan, O.Mamanazarov, A.Nazirov va D.Inoyatovalar loyihani boshqarish asoslari va metodologiyasini tahlil qilishgan [1]; D.Suyunov va B.Xolbayevlar loyiha boshqaruvining uslub va standartlarini o'rganib chiqishgan [2]; A.Hasan loyiha boshqaruvida startap, ishlanma va loyiha kabi tushunchalarni o'rganib chiqib, ularning o'ziga xos xususiyatlari va amaliy tomonlarini ko'rib chiqqan [3]. Ta'lim sohasidagi loyiha boshqaruvi hanuzgacha yetarli darajada o'rganilmagan soha bo'lsada, ta'lim menejmenti bo'yicha ba'zi ishlarda aynan ta'lim loyihalashtirishning muayyan jihatlari R.Djurayev va S.Turg'unovlar tadqiq etishgan [4]. Respublikamizning loyiha menejmenti va ta'lim menejmenti sohalari uchun maqolada qo'yilgan masala dolzarbligi aynan shundan ham dalolat beradi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda qo'yilgan masalani o'rganish uchun tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, ikkilamchi manbalar tahlili, nazariy modellashtirish hamda tarixiy yondashuv usullari qo'llanilgan. Tahlil va sintez asosida qo'yilgan muammoning nazariy asoslari o'rganib chiqilgan. Qiyosiy tahlil esa ta'lim sohasidagi loyiha menejmenti uchun muhim bo'lgan turli kontseptsiyalarni taqqoslangan va umumlashtirilgan. Ikkilamchi ma'lumotlar tahlili orqali mavjud manbalarning ma'lumotlari to'planib, batafsil o'rganib chiqilgan. Nazariy modellashtirish asosida ta'lim sohasidagi loyiha menejmentining jarayonini ochib berilgan. Tarixiy yondashuv yordamida qo'yilgan muammoning tarixiy asoslari tahlil qilingan. Umumiy xulosa esa tizimli yondashuv asosida shakllantirilgan.

Natijalar va muhokama

Loyiha menejmenti nisbatan yangi soha bo'lgan-

iga qaramay, loyiha boshqaruvining ibtidoiy shakllari sifatida biz Misrdagi piramidalar yoki Buyuk Xitoy devori kabi qurilish jarayonlarining loyahasini ko'rishimiz mumkin. Xususan, piramidalarni qo'rish uchun katta resurslar, materiallar va vaqt kerak bo'lgan. Bunda loyiha boshqaruvi markazlashgan va tizimli boshqaruv hamda mehnatni optimal tashkillashtirish ko'rinishlarida namoyon bo'lgan. Ushbu katta tarixiy loyiha turli bosqichlardan iborat bo'lgan [5, 270]. Buyuk Xitoy devori ham katta qurilish loyihasi sifatida muntazam ravishda boshqarilib turgan, ammo bu yerda markazlashgan yondashuvdan voz kechilgan. O'rta asr Yevropa mamlakatlarida loyiha boshqaruvi uzoq muddatli rejalashtirish, matematika va muhandislikning yangi yutuqlariga asoslangan. Renessans davrida bu ilmiy yondashuv bilan yanada kuchaytirilgan edi. 18-19 asrlarda bo'lib o'tgan sanoat inqilobi katta infratuzilmaviy loyihalarni yo'lga qo'yish imkonini bergan. Bunda asosiy usullar sifatida yuqoridagilar bilan birga loyiha hujjatlarini tayyorlash, logistika va ta'minot tizimlarini, sifat standartlarini ishlab chiqish hamda ilmiy menejment qo'llashni boshlangani bo'lgan. Aytishimiz mumkin, 20 asrgacha loyiha menejmentining formal metodologiyasi mavjud bo'lmaganligiga qaramay, uning usul va tamoyillari u yoki bu shaklda namoyon bo'lgan. Ushbu misollar shuni ko'rsatadiki, loyiha menejmentining rejalashtirish, tashkillashtirish, tartibga solish va nazorat qilish kabi bazaviy elementlari muvaffaqiyatga erishi uchun asos sifatida xizmat qilgan. Aytib o'tilgan usullarning evolyutsiyasi turli sohalarda, shu jumladan ta'limda ham loyiha menejmenti uchun zamonaviy yondashuvlarning rivojiga poydevor bo'lgan.

Yuqoridagilar bilan birga shuni ham aytib o'tish joizki, ta'lim sohasi tarixiy retrospektiva nuqtai nazaridan o'zgarib kelgan va yaxlit ta'lim tizimi, ommaviy ta'lim hamda ta'limning mazmun-mohiyati aynan 17-19 asrlarga kelib transformatsiyalashgan, 20 asrga kelib esa pedagogika fundamental sifatida shakllangan, ta'limda boshqaruv va loyihalashtirish esa alohida tarmoq sifatida ko'rilishi boshlangan [6, 28]. Bu ta'lim dasturlari va rejalari, yangi metodikalar va texnologiyalarni ishlab chiqish, ularni joriy qilish va o'zgartirish bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa raqamli texnologiyalarning zamonaviy davrida ta'lim tizimiga axborot texnologiyalarni joriy qilishda bu yanada dolzarb ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Demak, ta'limda loyiha boshqaruvi masalasi ko'rib chiqishdan avval loyiha menejmentining nazariy-metodologik asoslarini ochib berish lozim. Loyiha menejmenti bugungi kunda loyihalarni samarali rejalashtirish, tashkillashtirish, ularni boshqarish va nazorat qilish jarayonlarini ta'minlaydigan nazariy kontseptsiyalar va metodologiyalar hamda amaliy

tajribaga asoslangan murakkab fan hisoblanadi. Loyiha amalga oshiriladigan asosiy faoliyat yo'nalishlari bo'yicha quyidagi turlarni aytib o'tishimiz mumkin [2, 8]:

1. Texnik (biznes-markaz qurish loyihasi);
2. Tashkiliy (oliy ta'lim tizimini qayta qurish loyihasi);
3. Iqtisodiy (moliyaviy barqarorlik loyihasi);
4. Ijtimoiy (bog'chalar qurish loyihasi);
5. Aralash (chiqindilarni yo'q qilish bo'yicha loyiha).

Shunga asosan biz tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy loyihalarni ajratib chiqishimiz mumkin. Nazariya nuqtai nazardan loyiha menejmenti boshqaruv nazariyasiga asoslanadi. Boshqaruvning mumtoz nazariyasi A.Fayol va M.Veberlarning ishlariga asoslanadi, ular boshqaruvning rejalashtirish, tashkilashtirish, boshqaruv va nazorat, kabi asosiy funksiyalarini ajratib chiqishgan [7, 74-80]. Ilmiy boshqaruv nazariyasi F.Teylor tomonidan ishlab chiqilgan va u ish jarayonlarini optimallashtirish, mehnatni standartizatsiyalash va to'g'ri taqsimlash asosida ishlab chiqarishni yuqori darajaga ko'tirish masalalarini o'rgangan. Shu asosda AQSh iqtisodiyoti va menejmentida teylorizm yo'nalishi vujudga kelgan [8, 33]. Tizimli nazariya ko'proq tashkilotda loyiha menejmentiga e'tibor qaratib, tashkilotni bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan elementlarning yaxlit tizimi sifatida ko'radi [9]. E.Goldratt tomonidan ishlab chiqilgan cheklovlar nazariyasi loyihaga ko'proq qaratilgan bo'lib, loyiha maqsadlari bajarilishiga to'sqinlik qiladigan cheklovlarni aniqlash va ularni boshqarish masalasini ko'rib chiqadi [10]. Kontingent nazariyasi esa har qanday loyihaga mos tushadigan universal boshqaruv usullar mavjud emas deb hisoblaydi va usulni tanlashda loyihaning xususiyati, tashkiliy muhit va tashqi omillardan kelib chiqish kerak deb hisoblaydi [11, 154]. Ushbu barcha nazariyalar loyiha menejmentining bevosita nazariya asosini tashkil etadi. Shuni ham aytib o'tish lozimki, nazariyalar keltirilganlar bilan cheklanmaydi, chunki davr o'zgarishlari tufayli yangi nazariyalar shakllanib bormoqda.

Loyiha menejmentining metodologiyasi haqida gapiradigan bo'lsak, ular quyidagicha:

1. Waterfall – loyihaning har bir bosqichi keyingi bosqich boshlanishidan oldin yakunlanishi lozim; ko'proq aniq talablar va natijalarga qaratilgan loyihalarga to'g'ri keladi.
2. Agile – loyihalarni ishlab chiqishda turli o'zgarishlarga moslashuvchanlik, ko'proq IT-sohasiga to'g'ri keladi.
3. Scrum – jamoalarning faoliyatini kichik

bosqichlar va doimiy majlislar asosida tashkil etish.

4. Kanban – loyihani vizuallashtirish orqali boshqarishga asoslangan, ko'proq ma'umriy jarayonlarga mos keladi.

5. Lean – loyiha jarayonlarni takomillashtirish uchun xarajatlarni minimallashtirishga asoslangan va ko'proq jarayonlarni optimallashtirish uchun qo'llaniladi.

Loyiha menejmentining asosiy nazariyalari va metodologiyalari bilan birga uning tamoyillariga ham alohida to'xtalib o'tish zarur. Ma'lumki, loyiha menejmentining asosiy tamoyillari quyidagicha:

1. Rejalashtirish – loyihaning maqsad va vazifalari, kerakli resurs va muddatlarni aniqlash.

2. Tashkilashtirish – loyiha jamoasini shakllantirish, rol va vazifalarni taqsimlash, loyihani boshqarish tuzilmasini yaratish, muloqot yo'llarini belgilash.

3. Ijro etish – rejaga asosan loyiha vazifalarini amalga oshirish, jamoaning faoliyatini tartibga solish va resurslarni boshqarish.

4. Nazorat – loyihani bajarish jarayonining monitoringi, vazifalar amalga oshishi va muddatlarga rioya qilinishini baholash, zarur holatlarda o'zgartirishlarni kiritish.

5. Yakunlash – loyiha natijalarini baholash, uni yakunlash va hisobotlarni tayyorlash.

Ta'lim sohasida loyiha boshqaruvi globalizatsiya, innovatsiyalar, texnologik transformatsiyalar va ta'lim sifati masalalari bilan bevosita bog'liq. Ta'limni o'zi ham bir loyiha sifatida qaralishi mumkin va bu loyiha dinamik ravishda doimo rivojlanadi [12, 83]. Bu jarayon turli texnologik, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy omillar bilan bog'liq. Jamiyat va iqtisodiyot taraqqiyoti ta'limga yangi g'oya va yondashuvlarni joriy qilishni talab qiladi. Loyiha menejmenti esa aynan shu g'oya va yondashuvlarni joriy qilishda tizimli usul sifatida ham namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, loyiha menejmenti ta'lim tashkilotiga tizimli ravishda ta'lim sifati bilan shug'ullanish, uni oshirishga xizmat qiladi. Xususan, Agile metodologiyasi ta'lim tashkilotiga yangi muammolarga javob berish, o'zgarayotgan sharoitlarga moslashish uchun imkon beradi. Ammo loyiha menejmentining ta'lim tashkilotida namoyon bo'lishining aniq misolini ko'rib chiqish lozim. Masalan, har qanday ta'lim tashkiloti mavjud o'quv dasturlarini takomillashtirish, yangilarini esa ishlab chiqish va joriy qilish bo'yicha katta faoliyati olib boradi. Bu yerda loyiha menejmenti yangi o'quv dasturning maqsad va vazifalarini belgilash, mehnat bozorida ushbu dastur bo'yicha mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash hamda natijalarni faraz qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, yangi ta'lim dasturini ishlab chiqishda batafsil rejani aniq bosqich, vazifalarini

falar, resurs va muddatlarni belgilash muhim, chunki bu bevosita jamoa faoliyatini tashkil etish, loyihani amalga oshirish bilan chambarchas bog'liq. Yangi ta'lim dasturini ishlab chiqishda muhim o'quv-uslubiy masala vujudga keladi, ya'ni o'quv materiallar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar hamda boshqa zarur ta'minotni tayyorlash masalasi ham hal etilishi lozim. Ishlab chiqilgan yangi dastur aprotatsiyadan o'tilish ham aynan loyiha menejmenti bilan bog'liq Metodologik nuqtai nazardan Agile usuli bilan birga ADDIE usulini ham qo'llash mumkin. ADDIE, ya'ni tahlil, loyihalashtirish, ishlab chiqish, joriy qilish va baholash – bularning barchasi ta'lim dasturini yaratishga tuzilmaviy yondashuvni tashkil etadi va ehtiyojni aniqlashdan dasturni joriy qilinganligining samaradorligini baholashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ta'limda loyiha menejmentida dizayn-tafakkur usulini ham qo'llashimiz mumkin. Ushbu usul kishilar ehtiyojlari va kreativ qarorlarni ishlab chiqishga asoslangan yangi innovatsiyalarni kiritishga qaratilgan. Dizayn-tafakkur yangi ta'lim dasturlari, o'quv materiallar va ta'lim metodikalarini tahsil oluvchilarning ehtiyoj va fikrlarini inobatga olgan holda ishlab chiqishga asoslangan. Network management usuli turli ta'lim tashkilotlari birgalikda yangi dasturni ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin. Bu tajriba almashinuvi, innovatsion dasturlarni ishlab chiqishga bevosita xizmat qiladi. Ko'rishimiz mumkinki, ta'lim tashkilotida yangi ta'lim dasturini ishlab chiqishda loyiha menejmenti qanday namoyon bo'lishi mumkin, bu tizimli va tuzilmaviy yondashuvni ta'minlaydi hamda har bir jarayonning samaradorligini oshiradi.

Xorij tadqiqotlarda ta'limda loyiha menejment alohida tarmoqqa aylangan. O'zbekiston Respublikasida esa ushbu soha bo'yicha tadqiqotlar davom etmoqda va yangi masalalarga duch kelmoqda. Masalan, jahon miqyosida ta'limda loyiha menejmenti uchun an'anaviy usullarning eskirganligi, resurslar cheklanganligi, mavjud talab va standartlar, innovatsiyalar va texnologiyalar har biri muammoli tomonlari mavjud bo'lsada, O'zbekistonda ushbu soha bo'yicha nisbatan yangi muammo nafaqat maktabgacha va maktab ta'limi, balki oliy ta'limdagi xususiy sektorning ulushi o'sib borishidan iborat. Shu munosabati bilan loyiha menejmentidan yangi usul va yondashuvlarni ishlab chiqish talab qilinadi, chunki xususiy ta'lim muassasi – bu alohida, yirik loyiha. U nafaqat ta'lim tizimi taraqqiyoti, balki bo'lajak mutaxassislarining malakasi hamda iqtisodiyotning kelajagi bilan bog'liq.

Xulosa

Loyiha menejmenti zamonaviy boshqaruvning dolzarb yo'nalishi deb aytishimiz mumkin. Ta'lim sohasida loyiha menejmenti alohida dolzarblikka ega,

chunki u ta'limiy loyihalarni samarali boshqarish, innovatsiyalarni rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Ta'limda loyiha menejmentining usul va tamoyillarini qo'llash davr chaqiriqlari va turli o'zgarishlarga javob berish, ta'limning yangi metodika va texnologiyalarini ishlab chiqish hamda tahsil oluvchilarda bugungi davr uchun zarur bo'lgan ko'nikma va qobiliyatlarni o'stirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta'limda samarali loyiha menejmentini amalga oshirish uchun turli usul va metodologiyalarni qo'llash lozim, chunki har qanday vaziyat o'zgaruvchidir, shunga mos ravishda loyiha maqsadi ham o'zgarishi mumkin. Loyiha menejmenti shaxs rivoji va o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslashish uchun ta'limda zamonaviy va innovatsion dasturlarni yaratish uchun yirik resursdir.

Adabiyotlar / Литература / References

1. Mamanazarov O.Sh., Nazirov A.X., Inoyatova D.Sh. Loyiha boshqaruvi. – Toshkent, 2019.
2. Suyunov D.X., Xolbayev B.A. Loyiha boshqaruvi: uslub va standartlar. – Toshkent, 2021y.
3. A.Hasan. Project management yoki loyihalar boshqaruvi. – Toshkent, 2022.
4. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. – Toshkent, 2006.
5. Галкин Е.Б. Врач-экономист Имхотеп и начало строительства пирамид в Египте // Молодой ученый. — 2016. — № 26 (130). — С. 268-273.
6. Бекбаев Р.Р. Теории познания. – Ташкент: Book Trade, 2023г.
7. Поляков А.Н. Административное управление Анри Файоля // Management: журнал. – 2020. – №3(55). – С.74-80.
8. Гуца П.В., Константинов С.А. Научные положения Ф. Тейлора и их влияние на развитие систем материального стимулирования труда // Проблемы экономики. – 2010. – №1(10). – С.29-35.
9. Цветков В.Я. Системное управление // Economic Consultant. – 2019. – №1(25). – С.57-64.
10. Голдратт Э.М., Кокс Дж. Цель. Процесс непрерывного совершенствования. – Минск: Поппури, 2009.
11. Семькин А.С. Успешное управление компанией: роль стратегического планирования и внедрения инноваций // Инновации и инвестиции. – 2023. – №4. – С.152-155.
12. Марашли И.Х. Роль проектного менеджмента в организации деятельности в системе образования // Инновации и инвестиции. – 2020. – №12. – С.82-85.